

Jumatova Rayhon Raximbayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani 42-AFChO'I maktabi GEOGRAFIYA fani o'qituvchisi

Tilavova Moxira Radjabbayevna

Xorazm viloyati Gurlan tumani 8-umumiy o'rta ta'lim maktabi GEOGRAFIYA fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada geografiya fanidan muammoli o'qitish metodlari, geografiya fanidagi muammolar va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish, muammoli o'qitishning asosiy shartlari, geografiya ta'limining asosiy vazifalari, geografiya fanini o'qitishning muammolaridan ta'lim jarayonida foydalanishning eng muhim shartlari haqida batafsil bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *geografiya, muammoli o'qitish metodlari, tabiat komplekslari, muammoli vaziyat.*

Kirish:

Bugungi kunda inson tomonidan buzilgan tabiat komplekslarini tiklash bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Sanoat ishlab chiqarishi natijasida hosil bo'lgan texnogen landshaftlar bog'larga, o'rmonlarga, ekinzorlarga va dam olish maskanlariga aylantirilmoqda.

Geografiya ta'limining muhim vazifalaridan biri muammoli dars texnologiyalarini ishlab chiqish jarayonida yuqoridagi muammolardan keng foydalanish va ularni o'quvchilar ongiga chuqurroq singdirishdan iborat. Muammoli metodlar bayon, qisman izlanuvchan va izlanuvchan metodlar, shuningdek o'zlashtirish darajalari bilan tanishgandan keyin zamonaviy o'qitish tizimining tarkibiy qismlaridan bo'lgan muammoli o'qitish metodiga o'tishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy qismlardan iborat bo'lganligi uchun unda tabiat va jamiyatdagi hamma muammolar mujassamlashgan. Mazkur muammolardan ta'lim jarayonida foydalanishning eng asosiy shartlaridan biri bo'lib ularni kelib chiqishiga ko'ra guruhlarga bo'lishdir.

Ushbu muammolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- tabiiy geografik muammolar;
- ijtimoiy-iqtisodiy geografik muammolar;
- geologik muammolar;
- ta'limiy va tarbiyaviy muammolar;

Tabiiy geografik muammolar insoniyat tarixi mobaynida jamiyatga ta'sir qilgan asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda. Bunday muammolarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- a) Yer qobig'ining xususiyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- b) atmosfera va iqlim bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- v) Yer usti suvlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- g) biologik muammolar, ya'ni tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- d) Dunyo okeani bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Yer qobig'ini xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni oldindan bilib bo'lmaydi, faqat ularni sodir bo'lishini oldindan bilib tegishli chora tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

Natijalar:

Tabiatdan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari bugungi davrda hamma fanlar oldida turgan umum insoniy muammo bo'lib sanaladi. Tabiatdan noto'g'ri foydalanish oqibatida katta maydonlarda tuproqlar sho'rlanib ketgan, shamol va suv eroziyasi oqibatida tuproqni sifati pasayib ketgan, yaylovlardan intensiv foydalanishi oqibatida ularni mahsuldorligi kamayib ketgan, o'simlik resurslaridan noto'g'ri foydalanish oqibatida o'rmonlar maydoni qisqarib ketgan, ovchilikni rivojlanishi bilan insoniyat tarixida ko'p hayvonlar butunlay qirilib ketgan yoki butunlay yo'qolish arafasida.

Shu munosabat bilan tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish maqsadida butun jahonda qo'riqxonalar, milliy bog'lar, biosfera qo'riqxonalari, buyurtma xonalar tashkil etilgan. Jahon va alohida davlatlar qizil kitoblari nashr qilingan va qilinmoqda.

Muhokama:

Muammoli o'qitishning asosiy shartlaridan biri muammoli vaziyatni tashkil etish sanaladi. Muammoli vaziyat deganda yechilishi o'quvchilar uchun qiyin tuyilgan va uni yechish uchun yangi izlanish va yondashishlarni talab qiladigan muammoga aytiladi. Muammoli vaziyatni vujudga kelishi o'quvchilar uchun qiyin tushuniladigan holat bilan bog'liq bo'ladi. Agar ushbu vaziyatni tahlili mobaynida o'quvchilar uning mazmunini tushunib yetishga va uni yechish yo'llarini topsa muammoli vaziyat muammoga aylanadi, agar vujudga kelgan muammoli vaziyatni yechishga o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari yetishmasa unda muammoli vaziyat yechilmaydi va muammoli dars emas muammoli bayon shaklida o'qituvchini o'zi yechib beradi.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bugungi vaqtda o'quvchilarni mustaqil ishlariga katta e'tibor qaratilmoqda, lekin shunga qaramasdan muammoli o'qitishga ancha sust darajada e'tibor berilmoqda. O'qitish jarayonida ijodiy metodlarni va muammoli o'qitishni qo'llash geografiya o'qituvchilarining asosiy metodi bo'lib qolishi

kerak.. Turli bosqichlardan iborat bo'lgan muammolarni yechishga o'quvchilarni jalb etish katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdug'aniev O. Geografiya darslarida texnika vositalaridan foydalanish. Toshkent "O'qituvchi" 2001.
2. Vaxobov X., Abduraxmonov B., Eshpo'latova N. Umumta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassalarida geografiya ta'limining o'рни va tuzilishi. O'zbekiston geografiya jamiyati axboroti, 25 jild, T.2003.
3. Vaxobov X., Tillaboeva M. Iqtisodiy geografiya asoslari. T. "O'qituvchi", 2001.
4. Jo'raboev M. Geografiya o'qitishda predmetlararo aloqa. T. "O'qituvchi", 2004.
5. Qurbonniyozov R. Geografiya o'qitish metodikasi. UrDU, Urganch, 2001.